

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIGA SO'ZLARNI TO'G'RI TALAFFUZ ETISH JARAYONLARINI O'RGATISHDA O'QISH TURLARINING AHAMIYATI

Mohidilxon Sidiqova

Andijon viloyati Xo'jaobod tumani 26-umumta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15600443>

Annotatsiya: Jahon andozalariga mos ravishda rivojlanayotgan mustaqil O'zbekistonimizda ta'lim tizimida har soniyada o'zgarish va islohotlar davom etmoqda. Islohotlar ko'zlangan asosiy maqsad—kelajak egalari bo'lgan yosh avlodga, murg'ak qalblarga yetarlicha bilim, ilm berish. Biz buning yaqqol misolini maktabga ilk qadam qo'ygan jaxji bolajonlarimizga o'qitiladigan ona tili va o'qish savodxonligi darslari misolida ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Ona tili va o'qish savodxonligi, ifodali o'qish, matn, ifodali o'qish, izohli o'qish, badiiy o'qish, tez o'qish, ongli o'qish.

Boshlang'ich sinflarda o'qitilayotgan Ona tili va o'qish savodxonligi darslari adabiyot fanining bir qismi. O'qish darslarida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatishning, asosan ikki yo'li bor:

1. Dars jarayonida turli matn xarakteridan kelib chiqib, o'quvchilarni ifodali o'qishlariga, xulosa chiqara olishlariga o'rgatish;

2. O'qish darslari materiallariga berilgan soatlarni qisqartirish hisobiga maxsus ifodali o'qish dasturlari tashkil etish.¹

Umuman, „Ona tili va o'qish savodxonligi “ darsliklaridagi barcha mavzular o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga, ularning lug'atini ko'paytirishga, og'zaki va yozma nutqini har tomonlama to'g'ri va aniq rivojlantirish va nutq madaniyatini o'stirishga ham yo'naltiriladi. Bundan tashqari fanlararo integratsiyaga ham alohida e'tibor berilgan bo'lib, har bir mavzu orqali o'quvchilar boshqa fanlarda ham ishlatiladigan, egallanishi zarur bo'lgan bilimlardan ham xabardor bo'ladilar. Misol uchun, 1- sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan “Yashil sayyora”, “Mo'jizaviy hasharot”, “Uy hayvonlari”, “Oy yerdan kattami?” 2-sinfda berilgan “Qishda uxlaydigan hayvonlar”, “Yer ostida nima bor?”, “Sayohatchi qushlar” mavzulari Tabiatshunoslik fani uchun aloqador bo'lsa, 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan “Robot ixtiro qilaman”, “G'aroyib ixtirolar” mavzulari esa Texnologiya faniga, 3-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan “Jamg'arma pullarim” , “Yetti xazina” mavzulari Iqtisodiy bilim asoslari faniga aloqador bo'lsa, 2-sinfdagi “Samarqand—tarix beshigi”, “Yozuvni kim ixtiro qilgan?” “Sayyohlari ko'p diyor” mavzulari tarix fani uchun aloqadordir. Hozirgi darsliklarimizda materiallarning sinfdan sinfga o'tgan sari mavzu jihatidan ham, mazmun jihatidan ham kengaya borishi hisobga olingan.

2-sinf Ona tili o'qish savodxonligi darsligida “Hunar—hunardan unar”, “Kasblar”, “Katta bo'lsam kim bo'laman?” mavzulari orqali o'quvchilar kichik yoshdanoq kasblar haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, o'zlariga kasb yoki hunar tanlashga harakat qiladilar.

Izohli o'qishga XIX asrning 60—70-yillarida rus pedagogi K. D. Ushinskiy asos solgan, u o'qishda o'quvchilarni „ongli, tushunib, o'ylab o'qishga“ o'rgatishni alohida ta'kidlaydi va uni

¹ Xòjamova Ma'rifat Rajabboyevna. Boshlang'ich sinf o'qish darsini yangi pedagogic texnologiyalar orqali tashkil etishda interfaol usullardan foydalanishning shakl metod va vositalaridan foydalanishning ta'limiy ahamiyati. SYNERGY: JOURNAL OF ETHICS AND GOVERNANCE Volume: 01 Issue: 06 | 2021ISSN: 2181-2616

„Izohli o'qish" deb nomlaydi.² Demak, izohli o'qish deb o'ylashga, uni his etishga, asarni to'liq tafakkur etishga, o'qilganning mazmunini o'zlashtirishga olib keladigan o'qishga aytiladi. Izohli o'qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g'oyani idrok qilishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida asosan she'rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar matni bilan tanishiladi. Tabiiyki, ularning har biri o'ziga xos shakl, uslub va mazmunda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o'ziga xos usulda o'qib o'rganish talab etiladi. Badiiy asarni izohli o'qishga yondosh metodlardan biri bu **ijodiy o'qish**dir. Ijodiy o'qish izohli o'qishdan farqli o'laroq, to'g'ridan-to'g'ri matnning mazmunini ro'yobga chiqarishga ijodiy yondashishni talab qiladi. Masalan, 3-sinfda X. To'xtaboyevning „Mehribon aka-ukalar" asarini ijodiy o'qish metodi asosida o'rganish jarayonida matn mazmuni va yozuvchi g'oyaviy niyatidan kelib chiqib, aka-ukalarning bir-biriga oqibatli bo'lishlari, inson faqatgina o'zinigina o'ylab yashamasligi, boshqalarni ham o'ylashi, boshqalar uchun ham qayg'urib yashashi, milliy xususiyatlar haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. „Alpomishning bolalaligi", „Momoning sirli sandig'i" asarlarini ham ijodiy o'qish metodi asosida o'qitish ijobiy samaralar beradi.

Ifodali o'qish. Boshlang'ich ta'lim tizimida mantiqiy o'qish (matnni to'g'ri, tushunib, tez (me'yorida) o'qish) va adabiy o'qish mukammal o'zlashtirilganidan so'nggina ifodali o'qish bosqichiga o'tish mumkin. U yod olingan she'riy asarlarni ifodali o'qishni ham o'z ichiga oladi.³ Ifodali o'qishning muvaffaqiyati o'quvchilarning asar mazmuni, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo'lishi bilan bog'liq. Ohang va intonatsiya she'riy asarlarni ifodali o'qishda qay darajada muhim bo'lsa, nasriy asarlarni o'qishda ham muhim talablardan biridir. Nasriy asarlarni ifodali o'qishdan oldin unda qanday g'oya ilgari surilayotganini aniqlash zarur. Masalan, 4-sinfda berilgan taniqli va sevimli bolalar yozuvchisi X. To'xtaboyevning „Xatosini tushungan bola" hikoyasini ifodali o'qishdan oldin o'quvchilarga xatosini tushungan bolaning kim ekanligi, uning xatosi nimada ekanligi, maqtanchoqlikning yomon illat ekanligi to'g'risidatasavvur hosil qilinadi. Ifodali o'qish oldiga qo'yilgan bu talab M.Abdurashidxonovning „Har kim ekanin o'rar", Sh.Sa'dullaning „Laqma it", A. Oripovning „Dehqonbobo va o'n uch bolakay qissasi" kabi she'riy hikoyalarini o'qishga ham xosdir.

Badiiy o'qish. Badiiy o'qish ifodali o'qishning eng baland pog'onasidir. Unda so'z san'atining barcha ko'rinishlari namoyon bo'ladi. U o'quvchidan asarning mohiyatiga to'liq kirishni, san'atkorona o'qishni talab etadi. Badiiy o'qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to'la anglab yetilgandagina ta'sirchanlikka yetish mumkin. Badiiy o'qishga tayyorgarlik ko'rishda aktyorlarning audio-video tasmalarga yozilgan ijrolaridan namuna olish foydalidir

Tez o'qish. Tez o'qish bu xatolarni bartaraf etishga, o'qish tezligini oshirishga yordam beradi. Bolaning o'qiganlarini tushunishi va qayta aytib berishi ham muhimdir. Sifatli tushunish muammosini hal qilish uchun tez o'qish texnikasi bolaga matnda nima muhimligini ko'rishga yordam beradi, diqqat, tasavvur, xotira va fikrlashni rivojlantiradi. Ba'zi o'qituvchilar matnlardagi belgilarni sanab, harflarni, tinish belgilarini va bo'shliqlarni hisobga olishadi, natijada ularning testlari haqiqatdan ham "hajmli" bo'lib qoladi.

² Qosimova K, Matchanov S, G'ulomova X, Yo'ldoshova Sh, Sariyev SH „Ona tili o'qitish metodikasi " Toshkent „Nasir" nashriyoti 2009 y

³ Umarova I.Y., Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish. Ta'lim fidoyilari, aprel(2022)453-bet

Tez o'qish bizga nimalarni beradi?

1. O'qishning tezligini oshiradi.
2. Matnni anglash darajasi ortadi.
3. Eslab qolish imkonini rivojlantiradi.
4. Xotirani mustahkamlaydi.
5. Qabul qilish tezligi ortadi.
6. Diqqatni jamlaydi.
7. Kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi.
8. Vaqtni tejaydi.

Ko'p bolalar o'qish paytida chalg'ishadi, ular o'z fikrlari bilan uchib ketishadi, ular o'qishni qayerdan to'xtatganlarini eslay olmaydilar. Shunday qilib, tez o'qishning asosiy usullari bolaga e'tiborni, diqqatni jamlashni, xotirjamlikni o'rgatadi

Ongli o'qish. Ongli o'qish va ifodali o'qish bir-birini taqozo qiladi, ammo bir-biriga aynan o'xshamaydigan o'qish sifatlaridir. Yaxshi o'qish malakalarining sifatlariga to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kiradi va ular o'qish darslarida o'zaro uyg'unlikda rivojlantiriladi, bu to'rt o'qish sifati bir-biri bilan uzviyaloqador. Ongli o'qish yaxshi o'qish malakalarining asosiysi hisoblanadi, chunki o'quvchi tez qisqa o'qiganini anglamasa, bunday o'qish ko'zlangan natijani bermaydi, o'qiganini tushunmaslikka olib keladi. To'g'ri o'qish ongli o'qishga ko'mak beradi. Tez, to'g'ri, ongli o'qish ifodali o'qishning poydevoridir. O'qish jarayonida xatolar turli sabablarga ko'ra kelib chiqadi:

1. So'zni talaffuz qilish bilan uning ma'nosini tushunish o'rtasida puxta sintez bo'lmagani uchun, ya'ni bola oldin so'zni tovush tomonini ko'radi, uni talaffuz qilishga harakat qiladi va ma'nosini e'tibordan chetda qoldiradi.

2. So'zlar ko'p bo'g'inli (murakkab bo'g'in tuzilishidagi so'zlarni o'qishda), ya'ni so'zning tovush tarkibi murakkabligi uchun tez o'qiyman deb xatoga yo'lqo'yadilar.

3. To'g'ri o'qish yorug'likka, matn shriftiga, bolaning ko'ruv sezgisiga ham bog'liq. ⁴

Ifodali o'qish ongli o'qishning ko'rsatkichidir, chunki matnning ma'nosini anglab o'qiy olgan o'quvchi, albatta, ifodali o'qish malakalarini ham egallagan bo'ladi. Ongli o'qish ifodali o'qish malakalarini o'stirish va mustahkamlashga yordam beradi. Ongli, to'g'ri va ravon o'qish malakasi hosil qilingan sari ta'sirli o'qish malakasi ham o'sib boradi. Ta'sirli o'qish o'quvchida his-tuyg'u uyg'otishga, voqea hodisalarni tassavvur qilishga, estetik zavq bag'ishlashga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xòjamova Ma'rifat Rajabboyevna. Boshlang'ich sinf o'qish darsini yangi pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etishda interfaol usullardan foydalanishning shakl metod va vositalaridan foydalanishning ta'limiy ahamiyati. SYNERGY: JOURNAL OF ETHICS AND GOVERNANCE Volume: 01 Issue: 06 | 2021 ISSN: 2181-2616

⁴ Yakubova M.P., Boshlang'ich sinflarda to'g'ri va ongli o'qish malakalarini shakllantirish yo'llari.

2. Qosimova K, Matchanov S, G'ulomova X, Yo'ldoshova Sh, Sariyev SH "Ona tili o'qitish metodikasi " Toshkent "Nasir" nashiryoti 2009 y
3. Umarova I.Y., Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish. Ta'lim fidoyilari, aprel(2022)453-bet
4. Yakubova M.P., Boshlang'ich sinflarda to'g'ri va ongli o'qish malakalarini shakllantirish yo'llari. Volume2 Issue4, April 2022ISSN 2181-2020 Page 28 RASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH Innovative Academy Research Support Cen

INNOVATIVE
ACADEMY